

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Tursunova Marjona Ismatillayevna

Shahrisabz davlat Pedagogika instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga doir metodik yondashuvlar, pedagogik vositalar va darsdagi interfaol strategiyalar tahlil etilgan. Shuningdek, bolalarning yoshga oid psixologik xususiyatlari inobatga olingan holda, ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantiruvchi topshiriq va mashg'ulotlar namunasi yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *mustaqil fikrlash, boshlang'ich ta'lim, ijodiy yondashuv, muammoli vaziyat, tafakkur, interfaol metodlar, kompetensiya.*

Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifasi — o'quvchilarga tayyor bilimlar berish emas, balki ularni mustaqil bilim izlashga, muammoni tahlil qilishga, o'z fikrini aniq va asosli bayon eta olishga o'rgatishdan iborat. Ayniqsa, bu yondashuv boshlang'ich ta'lim bosqichida muhim ahamiyatga ega. Zero, aynan shu davrda bola tafakkuri shakllana boshlaydi, uning bilimga bo'lgan munosabati, ijtimoiy faol pozitsiyasi rivojlanadi.

Mustaqil fikrlash — bu o'z fikrini mustaqil shakllantirish, axborotni tahlil qilish, izchil xulosa chiqarish, qaror qabul qilish kabi murakkab aqliy faoliyatdir. Bu ko'nikmalar esa bola erta yoshdanoq muayyan didaktik sharoitda o'rgatilganidagina shakllanadi. An'anaviy o'qitishda bolaga ko'proq tayyor bilimlar berilsa, zamonaviy ta'lim mazmuni uni fikr yuritishga, sabab-oqibat bog'lanishlarini ko'ra olishga, tanqidiy yondashishga o'rgatishni nazarda tutadi.

Maqolaning asosiy maqsadi — boshlang'ich ta'limda mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi metodik yondashuvlarni tahlil qilish, samarali usul va vositalarni ilmiy asoslash, amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatan qiziquvchan, faol, taqlidga moyil, ammo izchil mantiqiy fikrlashda yetarlicha tajribaga ega emas. Shuning uchun o'qituvchi tomonidan to'g'ri tanlangan metodlar, savollar va topshiriqlar o'quvchida mustaqil fikr yuritish asoslarini shakllantiradi.

Eng avvalo, mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun darslar muammoli vaziyat asosida qurilishi zarur. Masalan, “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Nima bo'ladi, agar...?” kabi savollar o'quvchini mulohazaga undaydi. Har bir darsda shunday vaziyatlar yaratilsa, bola faqat bilimni emas, balki uni qayta ishlashni, tahlil qilishni, yechim izlashni o'rganadi.

Shuningdek, ijodiy topshiriqlar — hikoya tuzish, matn davomini taxmin qilish, rasmga asoslangan fikrlar bildirish, situatsion rollarni bajarish — o'quvchining

mantiqiy hamda emotsional tafakkurini uygʻotadi. Bu esa bola nutqini, tasavvurini va aqliy faolligini shakllantiradi.

Mustaqil fikrlash koʻnikmasini rivojlantirishda klaster, aqliy hujum, insert, Venn diagrammasi, konseptual xarita kabi metodlardan foydalanish ayniqsa samarali. Bu usullar orqali oʻquvchi oʻz bilimini tahlil qiladi, guruhda fikr almashadi, muqobil yechimlarni taqqoslaydi. Misol uchun, ona tili darsida “Yaxshi doʻst qanday boʻlishi kerak?” degan savolga klaster tuzish orqali turli xususiyatlar aniqlanadi, munozara yuzaga keladi. Shuningdek, blooms taksonomiyasi asosida savollar tuzish orqali ham oʻquvchilarni fikrlashga undash mumkin. Bu usulda savollar quyidagi darajalarda beriladi:

1. Ma'lumotni eslab qolish (Kim? Qachon? Qayerda?);
2. Tushunish (Nima uchun bu shunday?);
3. Qoʻllash (Bu qoidani hayotda qayerda qoʻllash mumkin?);
4. Tahlil (Ikkala fikrning farqi nimada?);
5. Sintez (Yangi usul taklif et);
6. Baholash (Qaysi yechim eng maqbul? Nega?).

Bundan tashqari, guruhiiy ishlar ham mustaqil fikrlashni kuchaytiradi. Guruh aʼzolari bir-biri bilan muloqotda boʻlishar ekan, oʻz fikrlarini dalillashga, isbotlashga intiladilar. Oʻzaro bahs esa tafakkurni faollashtiradi.

Yana bir samarali usul — loyiha metodidir. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun oddiy mavzularda mini-loyihalar berish — “Tabiatni asraylik”, “Kitob mening doʻstim”, “Oila – mening qoʻrgʻonim” kabi mavzular asosida qisqa prezentatsiyalar, rasmiy lavhalar, hikoyalar tuzish — mustaqil izlanish, fikr yuritish, xulosa chiqarish koʻnikmalarini rivojlantiradi.

Oʻyin metodlari orqali ham mustaqil fikrlashni qoʻllab-quvvatlash mumkin. “Savol-javob estafetasi”, “Nimani oʻzgartirdim?”, “Mantiqiy zanjir”, “Bir soʻz – bir rasm” kabi oʻyinlar orqali oʻquvchi darsga faol ishtirokchi sifatida qoʻshiladi.

Eng muhimi, oʻquvchining mustaqil fikrlashiga toʻsiq boʻlmaslik, uning fikrini baholashda ijobiy yondashuvni tanlash zarur. Har qanday notoʻgʻri javob — bu yangi oʻrganish imkoniyatidir. Oʻqituvchi bolaning harakatini qadrlashi, uni ragʻbatlantirishi — mustaqillikni shakllantirishda asosiy omillardan biridir.

Boshlangʻich sinf oʻquvchisida mustaqil fikrlash koʻnikmasi tabiiy tarzda shakllanmaydi — bu pedagogik yondashuvlar, ongli tashkil etilgan darslar, individual va guruhiiy ishlanmalar orqali bosqichma-bosqich oʻrgatiladi. Zamonaviy metodlar, interfaol strategiyalar, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar — bularning barchasi bolaning tafakkurini uygʻotish, mustaqil fikrini bildirishga undash vositalaridir.

Oʻqituvchi har bir oʻquvchining fikrini qadrlashi, uning javobini diqqat bilan tinglashi va fikr bildirish imkoniyatini yaratishi orqali bolada fikrlash erkinligi, izlanish ruhi, masʼuliyat tuygʻusini uygʻotadi. Shu bois mustaqil fikrlash koʻnikmasini shakllantirish — boshlangʻich taʼlimdagi eng ustuvor vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahkamova, G. (2021). *Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi.
2. Bloom, B. S. (1956). *Taxonomy of Educational Objectives*. Longman.
3. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society*. Harvard University Press.
4. Jononov, B. (2022). "Boshlang'ich sinfda mustaqil fikrlashni rivojlantirish yo'llari". *Ilmiy izlanishlar jurnali*, №3.
5. Azizxo'jayev, A. (2020). *Innovatsion pedagogika*. Toshkent: Fan va texnologiya.